

ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA KEYSLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligi Surxondaryo akademik litseyi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Norboyeva Saida

ANNOTATSIYA

Bu maqolada ona tili fanida keys metodlaridan matnlarda foydalanish haqida fikr yuritilgan. Hozirgi vaqtda ona tili matnlar asosida yaratilyapti. Mana shu matnlarni o'quvchilar bilan birgalikda keys metodi orqali tahlil qilish maqolamning bosh maqsadlaridan biri sanaladi.

In this dissertation the use of case methods in texts in the subject of mother tongue is considered. Now mother tongue is created on the basis of texts. Analyzing these texts with pupils is one of the main aims of this dissertation.

—————“Ta’limning buyuk maqsadi
bilim berish , balki hatti-harakatlarga o’rgatishdir”.

G.Spenser.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o’quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, o’quvchilarda bilimga

ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, talimni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

1. “Keys stadi” metodi ta'lim texnologiyasi sifatida

Bugungi ta'lim jarayoning interfaol usullarsiz tasavvur etish qiyin. Ta'lim jarayonida qo'llanilgan interfaol usullar muayyan guruhlarda o'qitiladigan o'quv fanning bosh maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aks holda qo'llanilgan interfaol usul hech qachon ahamiyatga ega bo'lmay qoladi. O'qituvchi tanlagan usul dars davomida bolaning faolligini, kattalar va tengdoshlari bilan to'g'ri muloqot qila olishini ta'minlashi, tilda mavjud, biroq o'quvchi uchun notanish bo'lgan yangi so'z va iboralarning mazmunini anglash, eslab qolishga, muloqot jarayonida qo'llashga harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur.

Taniqli didakt olimlardan biri I.Y.Lerner o'quvchilarda ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan “Развитие мышление учащихся” (M.Prosvesheniye, 1982) nomli tadqiqotida: “Tafakkur bilimlarni o'zlashtirish bilan rivojlanadimi?” degan muammoni o'rtaga tashlaydi va bu savolga “Yo'q” deya javob beradi. Bilimlar zanjirida agar aloqadorliklar – bog'lanish, qiyos, sabab-natija munosabatlari bo'lmasa, u tafakkurni, ya'ni tarbiya ko'rgan shaxsni bera olmaydi. Bilim olishning ham, ta'lim oluvchiga bilim berishning ham, unga malaka, ko'nikma, odatlarni singdirishning ham, tabiatini shakllantirishning ham xilma-xil vosita, yo'l va usullari mavjud.

O'zbek tili ta'limi jarayonida bir qancha interfaol metodlardan foydalanish ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan keys-stadi usuli.

“Keys-stadi” inglizcha soʻz boʻlib, (“case”- aniq vaziyat, hodisa, “study”- oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan “case – true life”, yaʼni “keys – haqiqiy hayot” iborasiga koʻra keys – real hayotning “bir parchasidir”. Shunga koʻra bu metodni “amaliy holatlarni oʻqitish metodi” deb ham ataladi. Mazkur metod muammoli taʼlim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni oʻrganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u oʻquv jarayonida maʼlum bir maqsadga erishish yoʻli sifatida qoʻllanilsa, metod harakteriga ega boʻladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, maʼlum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni oʻzida aks ettiradi. Oʻquvchilar vaziyatni tahlil qilishlari, muammo mohiyatini tushunishlari, mumkin boʻlgan yechimlarni taklif etishlari va ularning eng yaxshilarini tanlashlari kerak.


Ushbu metod dastlab 1920-yilda Garvard biznes maktabida qoʻllanilgan. Garvard biznes maktabining oʻqituvchilari biznes yoʻnalishidagi aspirantura boʻlimi uchun toʻgʻri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez anglaydilar. Ushbu masalani dastlabki qadam yetakchi biznes amaliyotchilaridan intervʼyu olish omillar yuzasidan batafsil hisobot yozish boʻldi. Maʼruza tinglovchilariga u yoki bu tahskilot toʻqnash kelganda konkret vaziyat, ushbu vaziyatni tashkil etish asosida uning yechimini topish tarzida taqdim etilar edi.

Keys-stadining ikki klassik maktabi – Garvard (Amerikada) va Manchester (Yevropada) maktablari mavjud. Garvard maktabi doirasida mazkur metod yagona toʻgʻri yechimni izlashni oʻrgatish metodi hisoblanib, ikkinchi maktab (Manchester) keysda bayon qilingan muammoli vaziyat yechimining koʻp variantligini taklif qiladi. Amerika keyslari oʻnlab sahifali matnni va koʻplab chizmalarni oʻz ichiga oladi. Yevropa keyslari hajmi birmuncha kamroq.

Chet ellardagi biznes-maktablarda odatiy vaziyatlarni oʻrganishga oʻquv vaqtning oʻrtacha 25% dan 90% gacha boʻlgan qism ajratiladi. Masalan, Chikago universiteti biznes-maktabida oʻquv vaqtning 25% i keyslar ulishiga, Kolumbiya universitetida – 30%, Uortonda esa – 40% iga toʻgʻri keladi. Mashgʻulotlarni ushbu metod boʻyicha

uning “ilk ixtirochisi” – Garvard yetakchilik qiladi. GBMda o’qish vaqtida 700 tagacha keyslarni ko’rib chiqadi va buning uchun o’quv vaqtning 90% gacha qismini sarflaydi.

Keys-stade maktablari



Bunda shunday aniqlik kiritish kerak: moliyaviy fanlarga ixtisolashgan maktablarda keyslar salmog’i asosiy fanlar – menejment, marketing, axborot texnologiyalari, xodimlarni nisbatan ancha kamdir.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo’llaniladi. Keyingi yillarda oliy o’quv yurtlarida ham o’qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayorganligi kuzatilyapti.

Keysni tahlil qilishga o’rgatishda talabalarga sabab va oqibat aks etgan tayyor keyslar umumiy tarzda beriladi. Bu orqali talabalar keys bilan ishlash ko’nikmalarini

egallaydilar. Talabalar tajribasida tahlil qilingan keyslarning ko‘payib borishi, yangi vaziyatlarni hal qilinishida katta yordam beradi. Kasb-hunar kollejlari ta‘lim tizimida keys-stadi texnologiyasidan foydalanish o‘quv jarayoni faollashtiradi, talabalarning bilim olish imkoniyatlari kengaytiradi. Keys-stadi texnologiyasini qo‘llashdan oldin, texnologiya metodik jihatdan tasdiqlangan bo‘lishi, ta‘lim dasturiga nisbatan umumlashgan, o‘qituvchining ish rejasiga kiritilgan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi ish rejasida o‘quv fanlarining qaysi bo‘lim, mavzularida keys-stadi uslubidan foydalanishi ko‘rsatilib o‘tilishi kerak. Bu masalalarni tahlil qilish metod birlashmalarining zimmasiga yuklanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: “Sharq”, 1998. –B.63.
- 2.M.Mahmudov. “ O‘quv materialini didaktik loyihalash tizimi”. Pedagogik mahorat 2002-yil. 3-son
3. 2.M.Mahmudov. “ O‘quv materialini didaktik loyihalash tizimi”. Pedagogik mahorat 2003-yil. 1-son
- 4.M.Ochilov. “Yangi pedagogic texnologiyalar” 2000-yil
- 5.Sobirova M.R.”O‘zbek tili darslarida interfaol usullardan foydalanish”
- 6.Ahmedova H.O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari.-Toshkent: Tafakkur,2012.-96
7. Abdurahmanov G‘.,Rustamov H Ona tili.10-sinf uchun darslik.Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti,2003-yil
8. Tolipov O‘, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2006. –B.261.
9. Ne‘matova N., G‘ulomov A., Abdurimova M. Ijodiy matn ustida ishlash.

- Toshkent, "O'qituvchi", 1997. –V.48.
10. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000. –B.
11. Roziqov O, Mahmudov M, Adizov B, Hamroev A. Ona tili didaktikasi. – Toshent: Yangi asr avlod, 2005. -B.238.
12. Rajabzoda H, Safarov A. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida 1995. V. 293.
13. Rajabzoda H, Safarov A. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida samarali qo'llash-hozirgi zamon ta'limi talabi. – Buxoro, 2008. – B.36.
14. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – Toshkent: Moliya, 2003. –B. 358.
15. Tolipov O'. Ta'lim: o'qituvchi va o'quvchi faoliyati // "Sog'lom avlod" jurnali, 2000, № 7-8, 20-23-betlar.
16. Tolipov O'.Q, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: "Fan", 2006. –B.262.